

AVTOMOBILLARGA TABIIY GAZ QUYISH SHAHOBCALARINING TEXNOLOGIK JARAYONLARI.

Mustafoqulov Yusufjon Xudoynazar o`g`li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

tel: +998901040709

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtomobillarga gaz quyish shaxobchalarining ishlash prinsplari, gaz ta`minotlari, loyihalash asoslari keltirib o`tilgan. Gaz quyish shaxobchalarining shahar hududiga joylashtirish o`rni qay tarzda tanlanishi hamda havfsizlik qoidalari ushbu maqolada aniq keltirib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** geologik shart, abonent bo`linma, magistral quvur, GTS, o`rta bosimli gaz.

Avtomobillarga tabiiy gaz quyish shahobchalarining gaz ta`minoti sistemalariga qo`yilgan asosiy talabi shundan iboratki, ular ishonchli va uzluksiz ravishda shahar istemolchilari uchun kerakli bo`lgan gaz miqdorini yetarli darajada ta`minlab turishi, foydalanish davrida qulayligi, xavfsizlik darajasi ta`minlanganligi, avariya holatida ham tezkorlik bilan qayta tiklanishi, tejamkor bo`lish kerak.

Avtomobillarga tabiiy gaz quyish shahobchalarini loyihalashda quyidagilarni e`tiborga olish lozim, bunda loyihalanayotgan avtomobillarga tabiiy gaz quyish shahobchalarining joylanishi, qurilish maydonining zichligi, ko`cha yo`laklarning kengligi, turli xil muhandislik kommunikasiyasi tarmoqlari bilan oraliq masofalari, iqlimiy va geologik shart – sharoitlar va h.k.z. hisobga olinishi kerak.



Avtomobillarga tabiiy gaz quyish shahobchalarining gaz quvurlari foydalanish xizmatiga qarab magistral, shaxarda va sanoat korxonalari uchun muljallangan bo`lishi mumkin. Avtomobillarga tabiiy gaz quyish shahobchalarini gaz quvurlari o`z navbatida quyidagilarga bo`linadi:

Tarmoqlangan gaz quvurlari bu quvurlar orkali gaz sanoat korxonalariga kommunal maishiy korxonalarga, aholi istiqomat qiluvchi uylariga yetkazib beriladi. Tarmoqlangan gaz quvurlari gazning bosimiga qarab yuqori, o'rtacha va past bosimda, xalqa ko'rinishli va tarmoqli tasvirda loyihalanayotgan avtomobillarga tabiiy gaz quyish shaxobchalarining relefiga qarab loyihalanadi.

Abonent bo'linma tarmoqlangan quvurdan alohida avtomobillarga tabiiy gaz quyish shaxobchalarini istemolchilariga yoki bir guruh istemolchilarga berilishi mumkin.

Kichik shaharlarda bir yilda umumiy sarflanayotgan gazning 40 foizi kommunal maishiy korxonalar uchun sarflanadi. O'rtacha, katta va yirik shaharlarda esa bu ko'rsatgich umumiy sarflanayotgan gazning 20 foizidan oshmaydi. Avtomobillarga tabiiy gaz quyish shahobchalarini gaz ta'minoti sistemalarida gaz quvurlari-ning umumiy uzunligining 70 foizdan 80 foizgacha, o'rta bosimli gaz quvurlariga, faqatgina 20–30 foizgina past va yuqori bosimli gaz quvurlariga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi hududida o'rta bosimli gaz quvurlari asosan yer ustidan o'kaziladi. Avtomobillarga tabiiy gaz quyish shaxobchalarini gaz ta'minoti sistemalarida quvurlarning ishonchili ishlashini ta'minlashning eng yaxshi yo'li bu yer usti ko'rinishli tasvirda gaz quvurlarni loyihalanishdir. Yer usti ko'rinishli gaz quvurlari tarmoqli quvurlarga nisbatan ko'p metall sarflanadi. Kichik va o'rtacha shaharlarda kupincha ikki pogonali gaz ta'minoti sistemasi loyixalanadi, quvurda gazning bosimi 0,6 Mpa gacha bo'ladi. Agarda shaharning markaziy qismida yuqori bosimli gaz quvurini yotqizish mumkin bo'lmasa u xolda uch pog'onali (yuqori, o'rtacha va past) gaz quvurlari bo'ladi. Ko'p pog'onali gaz ta'minoti sistemalari (0,6MPa) yirik shaharlarda va viloyatlar oralig'i gaz ta'minoti sistemalarida ishlatiladi.

Avtomobillarga tabiiy gaz quyish shahobchalarini gaz quvurlari yer usti tasvirda, kichkina shaharlar uchun esa tarmoqli (boshi berk) tasvirda loyihalanadi. Tarmoqlangan gaz quvurlarining diametrlari 50 mm dan 400 mm. gacha bo'ladi.



Gaz yoqilg'isi manbasi sifatida magistral gaz quvuri xizmat ko'rsatadi. Magistral gaz kuvuriga gaz ta'minlovchi stansiya (GTS) orqali yetkazib beriladi. GTS dan gaz chiqayotganda uning bosimi 1,2 MPa pasaytiriladi va yukori bosimli gaz quvuriga yetkazib beriladi.

Yuqori bosimli gaz quvuri halka ko'rinishda loyihalanadi. Bu quvurga nazorat boshqaruv shaxobchalari (NBSH) yer osti gaz saqlagich ombor 11 ga boglangandir. Yer osti gaz saqlagich ombori, nazorat boshqaruv shaxobcha (NBSH) va yuqori bosimli gaz quvurlari magistral gaz quvurlari sistemasiga kiradi.

Shahar gaz ta'minoti quvurlari GTS va NBSH orqali ta'minlangan yuqori bosimli quvurdan boshlanadi.

Turli xil bosimdagi shahar gaz ta'minoti quvurlari bir – biri bilan bog'lanishi gaz boshqaruv shaxobchalari orqali amalga oshiriladi. Agarda yer osti gaz saqlagich omborlari gaz sarfining mavsumiy notekis sarflanishi uchun xizmat ko'rsatganda, sutkalik gaz sarfining notekis sarflanishni ta'minlashda 4 – gaz golder stansiyalari xizmat ko'rsatadi. Shaxardagi yirik istemolchilar (sanoat korxonalari, elektr stansiyalar, qozon qurilmalari) yuqori va urtacha bosimli gaz quvurlari orqali ta'minlanadi.

Shahar gaz ta'minoti sistemalarining ishonchli va tejamkorli ishlashi ko'p xollarda gaz bilan ta'minlovchi stansiya (GTS) lar soniga ham bog'likdir. Ilmiy izlanishlar va loyihalarning texnik iktisodiy asoslanishlari shuni ko'rsatadiki. Masalan: shahardagi aholi soni 120 ming kishigacha – 1. GTS, aholi soni 300ming kishigacha – 2ta GTS, 500 ming kishigacha – 3ta GTS bo'lish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Жураев, С., & Беккамов, М. (2022). КЛАССИФИКАЦИЯ ВСЯЧИХ МЕТАЛЛИЧЕСКИХ КОНСТРУКЦИЙ (ТРОСОВЫХ И МЕМБРАННЫХ) ПОКРЫТИЙ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 997-1002.

2. Жураев, С., & Сатторов, К. (2023). Расчет Тросовых Висячих Покровтий В

Пк Лира. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 16, 119-123.

3. Жўраев, С. (2023). АЛИШЕР НАВОЙИ ДАВРИ ИМОРАТЛАРИНИНГ АРХИТЕКТУРАСИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 142-146.

4. Turayev, S., & Sanjar, J. (2023). ZILZILA VAQTIDA BINO VA ZAMIN GRUNTLARINING O'ZARO TA'SIRI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 410-414.

5. Sanjar, J. (2023). DEVELOPMENT OF CULTURE AND ENTERTAINMENT PARKS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 9, 49-52.

6. Жураев, С., & Тураев, Ш. (2023). ДВУХПОЯСНЫЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНО НАПРЯЖЕННЫЕ СИСТЕМЫ. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(29), 77-81.

7. Жураев, С., & Сатторов, К. (2023). ТЕРМИНОЛОГИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ ВИСЯЧИХ И ВАНТОВЫХ МОСТОВ. Innovations in Technology and Science Education, 2(9), 197-206.

8. Хурсандов, Э. Ў. (2024). ЭГИЛУВЧИ ЭЛЕМЕНТЛАРНИ ҲИСОБЛАШ ВА УЛАРНИНГ АФЗАЛЛИКАРИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 47(5), 73-76.

9. Mamatmurod ogli J. S. et al. QURILISH BOSH PLANI, MATERIAL VA KONSTRUKSIYALARNI OMBORLARGA JOYLASHTIRISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 47. – №. 5. – С. 66-72.

10. Mamatmurod ogli J. S. et al. ASOS, PODEVORLAR VA ORAYORMALARNI KUCHAYTIRISH VA ULARNING MONTAJ SAMARADORLIGINI OSHIRISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 47. – №. 5. – С. 54-59.

11. Abdurahmon og T. S. et al. EGILUVCHAN-QATTIQ VANTLAR BILAN MUSTAHKAMLANGAN KATTA ORALIQLI SILINDRSIMON MEMBRANALARNI HISOBLASH //JOURNAL OF INNOVATIONS IN



SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2024. – T. 7. – №. 3. – C. 135-139.